

SHAXS TOLERANTLIK XUSUSIYATININI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

O'risheva Pokiza G'anisher qizi, o'qituvchi
Yusupov Javohir, tabiiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

pokizaorisheva@gmail.com

Annotatsiya: Maqola bugungi dolzarb muammolardan bo'lib, shaxs tolerantlik xususiyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari o'rganilgan. Psixologik treninglar asosida shaxs tolerantlik xususiyatini shakllantirish va ulardagi kommunikativ bilimdonlikni oshirish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Shaxs, tolerantlik, chidamlilik, sabr-toqat, xulq-atvor, odatlar, his-tuyg'ular, e'tiqod.

Har bir shaxsning jamiyatda yashashi uning ijtimoiy normalarga rioya qilgan holda o'ziga o'xshash odalar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro munosabatlari va ularning tasirida xosil bo'ladigan xodisalarning tabiatini va qonunyatlarini tushintirib berish – ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridandir.

Psixologik trening murakkab psixik voqeliklarni o'rganuvchi ijtimoiy psixologiyaning amaliy tadbiqiy sohasi bo'lib, hozirgi davrda ijtimoiy psixologiyaning dolzarbligi va uning jamiyatdagi sodir bo'layotgan barcha jarayonlarga aloqadorligi uning tadbiqiy sohalari doirasini ko'rsatadi. Psixologik treninglar asosida shaxs tolerantlik xususiyatini shakllantirish va ulardagi kommunikativ bilimdonlikni oshirish usullarini amaliyotga tadbiq etish yo'llarini o'rganadi. Bunday e'tiborga loyiq dolzarb muammolardan biri - yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirish, ularni yangicha demokratik munosabatlarga ruhiy jihatdan tayyorlashdir. Bu vazifani ado etishda psixologiyaning o'rnini va rolini aniqlash, tadbiqiy izlanishlarni amalga oshirish va ijtimoiy psixologik amaliyot doirasida ushbu vazifani amalga oshirish yo'llarini topish uchun hozirgi zamon psixologiyasining asosiy tadbiqiy yo'nalishlarini belgilash maqsadga muvofiq.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi mazmundorligi va ahamiyati, biz yashayotgan murakkab davrning eng dolzarb mavzularini qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Bu borada muhtaram Prezidentimiz o'z nutqida, dunyoda terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan, kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotgani, bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinayotganligiga e'tibor qaratdi. Bu masala bo'yicha shug'ullangan taniqli chet elik olimlar qatorida D.Lokk, R.Myullerson, K.Popper, B.Spinoza, D.Turimanlar tolerantlikni talqin qilishda liberal yondashuvni ochgan. "Tolerantliklik to'g'risida"gi risolasida amerikalik

tadqiqotchi D.Truman yozganidek, jamiyatni tanazzuldan, saqlab qolish va barqarorlikni saqlab turish bu faqat ochiq jamiyatning mezoni bo‘lib tolerantliklik bilan bog‘liqligini yoritib bergan.

Adabiyotlarda “Tolerantlik” so‘zining ma’nosi, lotincha “chidamlilik” demakdir. Tolerantlik (lot. tolerantia — sabrtoqat), tolerantlik — o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, hitsuyg‘ulari, fikrmulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lish. Odatga ko‘ra, tolerantlik – tajovussiz begona qarashlarni qarshiliksiz qabul qilish demakdir. O‘zbek tilida tolerantliklik tushunchasi, qalbning kengligi sifatida belgilanadi, turli millatlarning milliy urf odatlari, milliy madaniyati va diniy e’tiqodlarlar hamkorligi aks etadi.

Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o‘ziga xos xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munosabatini O‘zbekitson misolida ko‘rish mumkin. Mamlakatimizda turli toifadagi odamlar, siyosiy kuchlar va partiyalar o‘rtasidagi hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo tolerantlik tamoyili ijtimoi taraqiyotning eng muhim omillaridan biridir. O‘zbekitsonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari itsiqomat qiladi. Ular o‘rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo‘lmagan va bu xalqimizning azaliy tolerantlikligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va o‘zaro bog‘liklik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko‘chib yurishi va boshqa jamiyatda tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi. Tolerantlik bu aqlli kishilarning imkoniyatidir, ular muloqot va fikrlar xilma-xilligi orqali haqiqat yo‘lida olg‘a siljishlarga shubha qilmaydi. Bundan tashqari, tolerantlikning asosi – bu boshqa odamni xuddi u kabi qabul qilishda, boshqa nuqtai nazarni hurmat qilishda, siz ulashmaydigan narsada cheklanishda, boshqa millat va din vakillarining urf-odatlari, qadriyatlar va madaniyatini tushunishda va qabul qilishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, tolerantlik har qanday qarashlar va harakatlarga befarqlikni anglatmaydi.

Tolerantlikka juda sodda munosabatlar borligini ham ko‘rish mumkin. Jumladan, uni “jamiyatdagi turfa madaniyatlik, plyuralizm, turli-tumanlik va xilma-xilliklarning mavjudligini tan olish, qabul qilish, to‘g‘ri tushunish va hurmat qilishga qaratilgan ijobiy munosabat”, “sabrlik, qanoatlik, toqatlik, bardamlilik, chidamlilik”, degan ta’riflar ham mavjud.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, tolerantliklik madaniyati bu – har bir insonning erkin yashash muhiti, dunyoqarashi, odobi, udumlari, hissiyoti, uyfikrlari, e’tiqodlari, amallariga nisbatan sabrli bo‘lish va hurmat qilish madaniyati, deb ta’rif berish mumkin.

Axloqiy darajada tolerantlik ichki munosabat, boshqa odamlarga, jamoalarga, millatlarga, davlatlarga, madaniyatlarga va dinlarga hurmatni ixtiyoriy ravishda tanlash ko‘rinishida namoyon bo‘ladi, bu jihat eng muhimi tashqi tomondan o‘rnatilmaydi, lekin, ularning har biri tajriba natijasida mustahkamlanadi. Ana shu tajriba axloqiy normalarga asoslanadi. Ya’ni, tolerantlik xulq-atvori shakllanadi. Tolerantliklik xulq-atvori voqealarga, odamlarga, madaniyatlarga nisbatan tutgan munosabatimiz, ijobiy yoki salbiy hissiyotlarimizni, ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin bo‘lgan munosabatlarimiz va harakatlarimiz asosida baholanadi.

Bugun biz uchun ijtimoiy taraqqiyot va inson tafakkuri rivojlanishini tezlashtiruvchi, uning davr va kishilar ruhiga hamohang tarzda kechishini ta'minlab beruvchi tatbiqiy xususiyatli ishlar va ilmiy izlanishlar zarur.

Shuning uchun ham ular haqidagi bilimlarga ega bo'lish, birinchi navbatda, boshlovchi psixologlar uchun zarurdir.

Shunday qilib, agar ma'ruzalar tinglash jarayonida shaxs boshqalarning umuman olganda o'zlarini qanday tutishlari haqida tasavvurga ega bo'lsa, shu orqali boshqalarga nisbatan munosabat tizimini mukammallashtiradi. Masalan, bu borada "Robinson" o'yining o'ziga xos variantini taklif qilish mumkin. Aytaylik, guruh insonsiz orolga tushib qolgan, maqsad, katta qayiq yasash va orolni tark etish. Guruh a'zolari barcha yo'llar haqida fikrlashib, va mihiyat, 12 oy ichida shu oroldan chiqib ketish dasturini ishlab chiqadilar. fikrlar, takliflar bajaruvchilar haqidagi fantastik obrazlar va yaxlit tizim guruxda ko'plab shaxslararo muammolarni yo'l - yo'lakay hap qilishni talab qiladi, natijada odamlar bir-birlarini yanada yaqindan bilib oladilar.

Bizning fikrimizcha, har qanday vaziyat yoki omil doirasida ham etnopsixologik va hududiy o'ziga xosliklar hisobga olinishi zarur. Bu o'rinda shu narsa hech qanday e'tirozsiz qabul qilinishi lozimki, hozirgi davrda o'qitish va talim-tarbiya tizimining barcha jab-halarida faol ijtimoiy psixologik tayyorgarlik usullaridan foydalanish va foydalanilganda ham uning eng samarali, millat psixologiyasiga mos uslublarni keng targ'ib etish va amaliyotlarda joriy etish lozim. Bugungi kunda bilimdonlikning eng muhim jihatlaridan biri ham ijtimoiy psixologik bilimdonlikdir. Bu narsa, ayniqsa, kattalar faoliyatini to'g'ri tashkil etish va uni o'zgartirish borasida o'z o'rniga ega.

Bu o'rinda diqqatini ikki narsaga qaratish o'rinlidir. Birinchidan, o'zbek xalqi va O'zbekistonda yashayotgan boshqa millat vakillarida asrlar davomida shakllanib, sayqal topgan muomala madaniyati, odob-axloqqa aloqador fazilatlar va qadriyatlar borki, ular dunyo sivilizatsiyasi doirasida juda yuqori baholanib kelinmoqda. Lekin, ana shu olijanob insoniy munosabatlarda ayrim jihatlar borki, ular aynan ijtimoiy psixologik treningni tashkil qilish va o'tkazishda o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, o'zgarlar fikriga ergashish, shaxs yoshi va hayotiy tajribasini, jamiyatdagi obro'-e'tiborni har qanday sharoitda ham hisobga olish, tanqid yoki o'zini tanqid qilishda yuz-xotirlik fazilatlarini, o'z hissiy kechinmalarini o'zgarlar oldida ochiq-oydin izhor qilmaslik, Yevropa standartlari bo'yicha ijtimoiy psixologik treningni tashkil qilish va o'tkazishga monelik qilishi mumkin. Ikkinchidan, xalqning, ayniqsa, yoshlarning yangiliklarga intiluvchanligi, yangi innovatsion texnologiyalar, xorijiy tillarni o'rganishga intiluvchanligi va bu boradagi yoshlar iqtido-rini hisobga oladigan bo'lsak, ularda jahon talablari darajasida treninglarni faqat yoshlar auditoriyasida tashkil etish maqsadga muvofiqmikin, degan tabiiy savol paydo bo'ladi. Amaliy muloqot treningi – Ijtimoiy psixologik treningning bir ko'rinishi bo'lib, u yoki bu kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo'ladigan kommunikativ malaka, ko'nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Guruh va jamoalarda muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish, ish yuzasidan hamkorlik qilish yo'l-yo'riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so'zlashga o'rgatish, majlislar o'tkazish,

janjalli, nizoli holatlarda o'zini to'g'ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bunda asosiy maqsad-trening qatnashchilari ongiga o'zgalarni tushunish, o'zini o'zga o'rniga qo'ya olish, boshqalar manfaatlari bilan o'zinikini uyg'unlashtira olish g'oyasini singdirishan iborat. Talabalarni zamon talablariga mos tolerantlik xususiyatlari shakllangan kasb egalari qilib tarbiyalash uchun amaliy psixologik treninglardan foydalanib darsni tashkil qilish natijaga erishishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
- 2.G'oziyev E.G', Mamedov K.Q. Oliy maktab psixologiyasi. - Toshkent: Universitet, 2006. - B. 45-50.
- 3.Davletshin M.G. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya asoslari. -Toshkent: TDPU, 2006. – 43 b.
- 4.Kamolova, SH. O', & Munarova, R. O'. (2010). Urovni sovershenstvo lichnosti. Issledovatel nauchniy jurnal.–Qozog'iston, 5(49), 100-105.
5. Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O'quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 2(6).
6. Kamolova, S., & Maxmudova, A. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 3(1).
7. Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In Aktualniye zadachi pedagogiki (pp. 184-186).
- 8.O'risheva.P., & Jiyanberdiyev, M. (2023). PSIXOLOGIYA FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AXAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
- 9.O'risheva.P. (2022). THE DEVELOPMENT PROCESS OF A CHILD'S SELF-CONCEPTION AND MOTIVATION AREA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6).
- 10.O'risheva.P (2022). ILK O 'SPIRIN YOSHIDA PSIXOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(1), 32-36.